



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№9

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

9-jild
9-son
Sentyabr, 2026

September, 2026
Volume 9
Number 9

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



ISROIL STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINING TIZIMLI TAHLILI VA O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISH UCHUN AMALIY SABOQLAR

Abduraupov Rustam Ramzovich, Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li

АНАЛИЗ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ИЗРАИЛЬСКОЙ СТАРТАП-ЭКОСИСТЕМОЙ И ПРАКТИЧЕСКИЕ УРОКИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СТАРТАП- ЭКОСИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА

Абдураупов Рустам Рамзович, Содиков Эльмурод

ANALYSIS OF MANAGEMENT MECHANISMS IN THE ISRAEL STARTAP ECOSYSTEM AND PRACTICAL LESSONS FOR THE DEVELOPMENT OF THE STARTAP ECOSYSTEM OF UZBEKISTAN

Abduraupov Rustam Ramzovich, Sodiqov Elmurod

Annotatsiya: Ushbu maqolada Isroil davlatining startap ekotizimini boshqarish mexanizmlari kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida "Startaplar millati" sifatida e'tirof etilgan Isroilning startap ekotizimiga xos asosiy tarkibiy elementlar keng qamrovda o'rganildi. Xususan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qo'shma moliyalashtirish modeli (Yozma dasturi), harbiy-texnologik ta'lim tizimi (8200-razvedka bo'linmasi), Triple Helix (davlat-universitet-biznes) hamkorlik modeli hamda innovatsion faoliyatning xalqaro bozorga yo'naltirilganlik strategiyasi tahlil qilindi.

Empirik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda Isroil startaplariga jalb etilgan venchur kapital investitsiyalari hajmi 12 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, jon boshiga hisoblaganda 1 580 AQSh dollariga teng keladi. Mazkur ko'rsatkich global miqyosda eng yuqori darajalardan biri hisoblanadi. Aholisi 9,8 million kishini tashkil etuvchi kichik davlat sifatida Isroil global startap ekotizimlari reytingida 3-o'rinni egallaydi (StartupBlink, 2026).

Shu bilan birga, tadqiqotda O'zbekiston startap ekotizimining joriy holati ham kompleks baholangan. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, 2025-yilga kelib mamlakatda startap loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 329 million AQSh dollariga yetgan, shuningdek, 16 ta faol venchur kapital fondlari mavjudligi qayd etilgan.

Isroil va O'zbekiston startap ekotizimlarining qiyosiy tahlili asosida institutsional rivojlanish darajasi, moliyalashtirish mexanizmlari, innovatsion infratuzilma hamda davlat siyosati yo'nalishlaridagi mavjud tafovutlar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: startap ekotizimi; Yozma modeli; venchur kapital; Triple Helix modeli; harbiy-texnologik ta'lim tizimi; innovatsion infratuzilma; davlat-xususiy sheriklik; ekotizim boshqaruvi.

Аннотация: В данной статье на основе комплексного и системного подхода анализируются механизмы управления стартап-экосистемой Государства Израиль. В рамках исследования были всесторонне изучены основные структурные элементы, характерные для стартап-экосистемы Израиля, признанной "Нацией стартапов." В частности, были проанализированы модель совместного финансирования, поддерживаемая государством (программа Жазма), система военно-технологического образования (8200-е разведывательное подразделение), модель сотрудничества Triple Helix (государство-университет-бизнес), а также стратегия ориентации инновационной деятельности на международный рынок.

Согласно эмпирическим данным, в 2024 году объем венчурных инвестиций, привлеченных в израильские стартапы, составил 12 миллиардов долларов США, что эквивалентно 1 580 долларам США на душу населения. Данный показатель является одним из самых высоких в глобальном масштабе. Будучи небольшой страной с населением 9,8 млн человек, Израиль занимает 3-е место в рейтинге глобальных стартап-экосистем (StartupBlink, 2026).



В то же время в исследовании дана комплексная оценка текущего состояния стартап-экосистемы Узбекистана. Анализ показал, что к 2025 году объем инвестиций в стартап-проекты в стране достиг 329 миллионов долларов США, а также было отмечено наличие 16 активных фондов венчурного капитала.

На основе сравнительного анализа стартап-экосистем Израиля и Узбекистана были выявлены существующие различия в уровне институционального развития, механизмах финансирования, инновационной инфраструктуре и направлениях государственной политики, и разработаны конкретные научно-практические рекомендации, направленные на их устранение.

Ключевые слова: экосистема стартапа; Письменная модель; венчурный капитал; Модель тройной спирали; система военно-технологического образования; инновационная инфраструктура; государственно-частное партнерство; управление экосистемой.

Keywords: startup ecosystem; Written model; venture capital; Triple Helix model; military-technological education system; innovative infrastructure; public-private partnership; ecosystem management.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot va xizmatlar ulushini oshirishda startap ekotizimlari muhim strategik omil sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, biotexnologiya va boshqa ilg'or yo'nalishlarning jadal rivojlanishi startap faoliyatini iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy startap ekotizimlarini samarali boshqarish, ularning institutsional asoslarini mustahkamlash va innovatsion muhitni rivojlantirish masalalari zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi o'n yilliklar davomida Isroil ushbu yo'nalishda global miqyosda e'tirof etilgan, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan startap ekotizimini shakllantirdi. "Startaplar millati" (Startup Nation) sifatida tanilgan ushbu model o'zining kompleksligi, tizimliliği va barqarorligi bilan ajralib turadi. Xususan, Isroilda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan venchur moliyalashtirish mexanizmlari, innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi normativ-huquqiy baza, rivojlangan ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi hamda xususiy sektorning yuqori faolligi o'zaro uyg'unlashgan holda faoliyat yuritadi. Bunda davlat, ilmiy muassasalar va biznes subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ifodalovchi Triple Helix modeli markaziy o'rin tutadi.

Aholisi nisbatan kam — 9,8 million kishidan iborat bo'lishiga qaramay, Isroil startap ekotizimi global ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, 2024-yilda mamlakat startaplariga jalb etilgan venchur kapital investitsiyalari hajmi 12 milliard AQSh dollarini tashkil etib, jon boshiga 1 580 AQSh dollari ko'rsatkichiga erishilgan. Bu esa Isroilni dunyoda jon boshiga to'g'ri keladigan venchur investitsiyalari hajmi bo'yicha yetakchi davlatlardan biriga aylantiradi (IVC Research Center & Dealroom, 2024). Shuningdek, StartupBlink (2026) global reytingiga ko'ra, Isroil startap ekotizimlari orasida 3-o'rinni egallab, 21 900 dan ortiq faol startaplar bilan yuqori darajadagi innovatsion zichlikni namoyon etmoqda. Ushbu natijalar davlat siyosatining izchilligi, harbiy-texnologik ta'lim tizimining samaradorligi (xususan, 8200-razvedka bo'linmasi), shuningdek, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarining rivojlanganligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va startap ekotizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, IT xizmatlar eksportini oshirish hamda yoshlar o'rtasida tadbirkorlik ko'nikmalarini kengaytirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, IT Park Uzbekistan, venchur fondlari va akselerator dasturlarining tashkil etilishi startaplar uchun muhim institutsional platforma yaratmoqda. 2024-yilda mamlakat tarixidagi ilk "yakkashox" kompaniya — Uzum'ning 1,16 milliard AQSh dollari miqdorida baholanishi milliy startap ekotizimining yangi bosqichga o'tayotganidan dalolat beradi. Biroq, mavjud ijobiy o'zgarishlarga qaramay, O'zbekiston startap ekotizimida qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, venchur kapital bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xususiy investorlar faolligining pastligi, universitetlar va sanoat o'rtasidagi hamkorlikning sustligi hamda startaplar uchun chiqish (exit) mexanizmlarining cheklanganligi ekotizim samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, innovatsion infratuzilmaning hududlar kesimida nomutanosib rivojlanganligi ham startaplar faoliyatining kengayishiga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Isroilning startap ekotizimini boshqarish mexanizmlarini kompleks va tizimli ravishda o'rganish, ularni O'zbekiston startap ekotizimi bilan qiyosiy tahlil qilish hamda olingan natijalar asosida milliy sharoitga mos ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: birinchidan, Isroil startap ekotizimining institutsional va moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini aniqlash va tizimlashtirish; ikkinchidan, O'zbekiston startap ekotizimining joriy holatini empirik ma'lumotlar asosida kompleks baholash; uchinchidan, ikki mamlakat ekotizimlari o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni qiyosiy tahlil orqali aniqlash; to'rtinchidan esa, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan samarali boshqaruv yondashuvlari va siyosiy choralarni ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Startap ekotizimi nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutgan tadqiqotchilardan biri D. Isenberg (2010) hisoblanadi. U mazkur konsepsiyani o'zaro uzviy bog'langan oltita asosiy komponent — davlat siyosati, moliyalashtirish mexanizmlari, madaniy



muhit, tayanch infratuzilma, bozor imkoniyatlari hamda inson kapitali — yig'indisidan iborat murakkab va dinamik tizim sifatida talqin etadi. Isenberg yondashuvining asosiy ustunligi shundaki, u startap ekotizimini alohida elementlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro ta'sir qiluvchi va bir-birini to'ldiruvchi komponentlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi. Shu jihatdan, ekotizim samaradorligi har bir komponentning rivojlanish darajasiga emas, balki ularning o'zaro integratsiyasi va uyg'unligiga bevosita bog'liqdir.

Mazkur nazariyani rivojlantirgan holda, Moore (1993) va Stam (2015) startap ekotizimini "kirishlar" (inputs) va "chiqishlar" (outputs) o'rtasidagi funksional bog'liqlik orqali izohlaydi. Ularning yondashuvida "kirishlar" sifatida moliyaviy resurslar, inson kapitali va institutsional muhit ko'rib chiqilsa, "chiqishlar" sifatida esa innovatsion mahsulotlar, yuqori o'sish sur'atiga ega kompaniyalar hamda iqtisodiy qo'shilgan qiymat namoyon bo'ladi. Ushbu konseptual yondashuv startap ekotizimining samaradorligini baholashda tizimli va o'lchab bo'ladigan indikatorlardan foydalanish imkonini yaratadi.

Isroil startap ekotizimining nazariy va amaliy asoslarini o'rganishda Avnimelech va Teubal (2006) tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular 1993-yilda joriy etilgan Yozma dasturini davlat tomonidan boshqariladigan eng muvaffaqiyatli venchur kapital siyosat vositalaridan biri sifatida baholaydi. Mazkur dastur qisqa muddat — atigi 7 yil ichida — Isroilda venchur kapital fondlari sonini 4 tadan 60 dan ortiq fondga yetkazishga xizmat qilgan. Bu esa nafaqat moliyaviy infratuzilmaning shakllanishiga, balki xususiy investorlar va xalqaro kapital oqimining jalb qilinishiga ham turtki bo'lgan. Keyingi tadqiqotlarida Avnimelech (2009) Yozma modelining muvaffaqiyatini ta'minlovchi uchta asosiy omilni ajratib ko'rsatadi: birinchidan, dastur joriy etilishidan avval shakllangan yuqori texnologik salohiyat; ikkinchidan, xalqaro venchur kapital tarmoqlari bilan chuqur integratsiya; uchinchi esa, davlat siyosatining izchil va barqaror amalga oshirilishi.

Startap ekotizimlarining institutsional tuzilmasini tahlil qilishda Triple Helix modeli (Etzkowitz & Leydesdorff, 2000) muhim nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Ushbu modelga ko'ra, davlat, universitetlar va sanoat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Isroil tajribasida mazkur model amalda yuqori samaradorlik bilan qo'llanilib, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, startaplarni inkubatsiya qilish va texnologiyalar transferini jadallashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Xususan, Texnion – Isroil texnologiya instituti, Veysman ilmiy instituti va Tel-Aviv universiteti kabi yetakchi ilmiy markazlar innovatsion g'oyalarni startaplarga aylantirishda muhim institutsional platforma vazifasini bajaradi.

Saxenian (2006) tadqiqotlarida esa Isroil startap ekotizimining rivojlanishida diaspora tarmoqlarining roli alohida ta'kidlanadi. Uning fikricha, Isroil va Silicon Valley o'rtasidagi kuchli aloqalar bilimlar almashinuvi, texnologik tajriba transferi hamda kapital oqimining erkin harakatlanishini ta'minlagan. Bu esa milliy ekotizimning global innovatsion tizimga

integratsiyalashuvini sezilarli darajada tezlashtirgan. Huja va hammualliflar (2015) esa Porterning "olmos modeli" asosida Isroil venchur kapital tizimini tahlil qilib, davlat siyosatining innovatsion klasterlarni rivojlantirishdagi rolini asoslab bergan. Xususan, ular inkubator dasturlari va Yozma tashabbusining klasterlashuv jarayonlarini jadallashtirishdagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritadi.

Zamonaviy bosqichda Isroil startap ekotizimi doimiy transformatsiya jarayonida bo'lib, yangi siyosiy instrumentlar orqali yanada takomillashtirilmoqda. Jumladan, OECD (2025) hisobotiga ko'ra, "Yozma 2.0" dasturi (2024–2026) fond-of-funds mexanizmi asosida faoliyat yuritib, har yili taxminan 1 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni safarbar etishga qaratilgan. Bu esa davlatning bevosita investitsiyalardan bosqichma-bosqich bilvosita moliyalashtirish mexanizmlariga o'tayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston startap ekotizimi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar nisbatan cheklangan bo'lib, mazkur yo'nalish hali yetarli darajada o'rganilmagan. Mavlonov va Rashidova (2022) o'z tadqiqotlarida mamlakatda venchur kapital bozorining shakllanishiga to'sqinlik qilayotgan institutsional va moliyaviy omillarni tahlil qilgan. Xususan, ular investorlar uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlarning yetarli emasligi, huquqiy bazaning takomillashmaganligi va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi axborot nomutanosibligini asosiy muammolar sifatida ko'rsatadi. Startup Genome tomonidan e'lon qilingan Global Startup Ecosystem Report (GSER, 2025) hisobotiga ko'ra, O'zbekiston ilk bor global reytingda TOP-100 mamlakatlar qatoriga kirgan bo'lib, bu milliy ekotizim rivojlanishining ijobiy dinamikasidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli startap ekotizimi modellarini boshqa mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri transfer qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Xususan, Carnegie Endowment (2024) tadqiqotida ta'kidlanganidek, har bir mamlakatning institutsional tuzilmasi, madaniy xususiyatlari va tarixiy rivojlanish yo'li startap ekotizimining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, Isroil modelini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish jarayonida kontekstual omillarni chuqur hisobga olish zarur.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy institutsional tahlil (Comparative Institutional Analysis) yondashuvi Triple Helix nazariy ramkasi bilan integratsiyalashgan holda qo'llanildi. Ushbu metodologik yondashuv startap ekotizimlarini ko'p darajali va tizimli nuqtai nazardan o'rganish imkonini beradi. Tadqiqot dizayni sifatida qiyosiy keys-stadi (comparative case study) usuli tanlanib, unda Isroil va O'zbekiston startap ekotizimlari D. Isenberg (2010) tomonidan taklif etilgan oltilta asosiy komponent — davlat siyosati, moliyalashtirish mexanizmlari, madaniy muhit, tayanch infratuzilma, bozor imkoniyatlari hamda inson kapitali — kesimida kompleks baholandi. Mazkur yondashuv har ikki mamlakat ekotizimlarining institutsional tuzilmasi va funksional samaradorligini chuqur tahlil qilish imkonini yaratadi.



Tadqiqot jarayonida asosan ikkilamchi (secondary) ma'lumot manbalaridan foydalanildi. Xususan, IVC Research Center va Dealroom statistik bazalari, Startup Nation Central yillik hisobotlari, Israel Innovation Authority (IIA) Status Report 2025, StartupBlink Global Index 2026, IT Park Uzbekistan rasmiy hisobotlari, Startup Genome Global Startup Ecosystem Report 2024–2025 nashrlari hamda OECD tomonidan tayyorlangan Isroilning ventur kapital tizimi bo'yicha benchmarking hisobotlari (2025) asosiy axborot manbalar sifatida xizmat qildi. Mazkur manbalar startap ekotizimlarining rivojlanish dinamikasi, moliyaviy oqimlar va institutsional o'zgarishlarni empirik jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tahlil metodologiyasi to'rtta asosiy uslubiy yondashuvni o'z ichiga oladi. Birinchidan, statistik tahlil usuli yordamida investitsiya oqimlarining hajmi, dinamikasi va tuzilmasi baholandi, bu esa ekotizimning moliyaviy faolligini aniqlash imkonini berdi. Ikkinchidan, SWOT tahlili asosida O'zbekiston startap ekotizimining kuchli (strengths) va zaif (weaknesses) tomonlari, shuningdek, mavjud imkoniyatlar (opportunities) va tahdidlar (threats) tizimli ravishda aniqlab olindi. Uchinchidan, qiyosiy tahlil usuli orqali Isroil va O'zbekiston startap ekotizimlari o'rtasidagi asosiy o'xshashliklar va tafovutlar aniqlanib, ularning institutsional rivojlanish darajasi baholandi. To'rtinchidan, ekspert baholash (expert assessment) usuli qo'llanilib, olingan natijalar asosida ilmiy asoslangan va amaliy ahamiyatga ega siyosiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va haqqoniyligi turli mustaqil manbalardan olingan ma'lumotlarning o'zaro mosligi (triangulation) va konsistentligi tekshirilishi orqali ta'minlandi. Bu esa tadqiqot xulosalarining validligi va ishonchligini oshiradi. Tadqiqotning vaqt qamrovi 2019–2025 yillar oralig'ini qamrab oladi, bu davr startap ekotizimlarining pandemiyadan keyingi tiklanish va transformatsiya bosqichlarini ham o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, O'zbekiston bo'yicha tizimli va to'liq statistik ma'lumotlar bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi sababli ayrim ko'rsatkichlar IT Park Uzbekistan va boshqa institutsional manbalar tomonidan taqdim etilgan baholashlarga tayanilgan holda aniqlashtirildi. Mazkur holat natijalarning umumlashtirish darajasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq mavjud ma'lumotlar asosida olib borilgan tahlil mamlakat startap ekotizimining umumiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun yetarli ilmiy asos yaratadi.

Isroil jahon miqyosida jon boshiga to'g'ri keladigan ventur kapital hajmi bo'yicha yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. 2024-yilda xususiy moliyalashtirish hajmi 12 milliard AQSh dollarini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 31 foizlik o'sish qayd etildi. Ushbu natija geosiyosiy beqarorlik va xavfsizlik bilan bog'liq xatarlar mavjudligiga qaramay erishilgani Isroil startap ekotizimining yuqori darajadagi barqarorligi va moslashuvchanligini namoyon etadi (Startup Nation Central, 2024).

Mazkur muvaffaqiyatning institutsional asosi 1993-yilda joriy etilgan Yozma dasturi bilan bog'liq. Ushbu dastur doirasida 100 million AQSh dollari miqdoridagi davlat kapitali 10 ta ventur fondga qo'shma moliyalashtirish mexanizmi orqali taqsimlangan bo'lib, har bir fondga kamida bitta nufuzli xorijiy investor ishtiroki majburiy etib belgilangan. Natijada, davlat tomonidan risklarni qisman qoplash orqali xususiy kapitalni jalb qilishga erishilgan. 1998-yilda fondlarning xususiylashtirilishi va 2000-yilga kelib Isroilning YAIMga nisbatan ventur kapital ulushi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallashi ushbu modelning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. 2024-yilda esa mazkur model modernizatsiya qilinib, "Yozma 2.0" shaklida fond-of-funds mexanizmi asosida qayta joriy etildi (OECD, 2025).

Yil	VC Investitsiyalar (mlrd \$)	Nisbiy ko'rsatkich
2019	8,8 mlrd \$	55%
2020	10,3 mlrd \$	64%
2021	25,6 mlrd \$	100%
2022	15,5 mlrd \$	61%
2023	9,2 mlrd \$	36%
2024	12,0 mlrd \$	47%

1-rasm. Isroil ventur kapital (VC) investitsiyalari dinamikasi, 2019-2024⁶

⁶ Manba: IVC Research Center & Dealroom (2024); Startup Nation Central (2024)

<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>



Sohaviy tarkib jihatidan, 2024-yilda kibertexnologiyalar va sun'iy intellekt yo'nalishlari yetakchi segment sifatida shakllanib, umumiy investitsiyalarning qariyb 35 foizini jalb etdi. Kiberxavfsizlik sohasida faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalar global miqyosda yetakchi o'rinlarni egallab, ekotizimning ixtisoslashgan ustunliklarini shakllantirmoqda. Hududiy taqsimotda esa Tel-Aviv (Silicon Wadi) asosiy markaz bo'lib, jami investitsiyalarning taxminan 65 foizini o'zida jamlagan, Haifa esa biotexnologiya va mudofaa texnologiyalari klasteri sifatida ajralib turadi.

Zamonaviy ma'lumotlarga ko'ra, Isroilda 60 dan ortiq aktiv vechur fondlar faoliyat yuritmoqda. Umumiy vechur kapital hajmi 90 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lib, 40 dan ortiq "yakkashox" kompaniyalar shakllantirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatning global startup ekotizimidagi yetakchi mavqeyi yana bir bor tasdiqlaydi.

Harbiy-texnologik ta'lim va 8200-bo'lim

Isroil startup ekotizimining o'ziga xos jihatlaridan biri harbiy xizmat va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bilan izohlanadi. Xususan, Isroil mudofaa kuchlari tarkibidagi 8200-razvedka bo'limi zamonaviy kiberxavfsizlik va axborot texnologiyalari sohasida yetakchi tayanch institutlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur bo'linma yosh mutaxassislarda analitik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va murakkab muammolarni innovatsion yondashuv asosida hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

8200-bo'lim bitiruvchilari tomonidan asos solingan kompaniyalar orasida global miqyosda tan olingan yirik texnologik korxonalar mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Isroildagi yakkashox kompaniyalar asoschilarining muhim qismi aynan ushbu bo'linma bilan bog'liq. Bu holat harbiy tizimning "asoschilar inkubatori" sifatidagi rolini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, 18 yoshdan boshlanadigan majburiy harbiy xizmat tizimi aholining katta qismini texnologik kompetensiyalar bilan ta'minlab, inson kapitalini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tizim orqali shakllangan professional tarmoqlar (networking) va ishonch muhitining mavjudligi keyinchalik startaplar tashkil etish va rivojlantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Davlat dasturlari va innovatsiya siyosati

Isroilda startup ekotizimini rivojlantirishda davlat siyosati va institutsional mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Dastlab Office of the Chief Scientist (OCS) sifatida tashkil etilgan, keyinchalik Israel Innovation Authority (IIA)ga aylantirilgan tuzilma innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning markaziy koordinatori hisoblanadi.

IIA tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar, xususan Magnet tashabbusi, universitetlarda yaratilgan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Texnologik inkubatorlar tizimi esa deep-tech yo'nalishidagi startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali yuqori texnologik loyihalarga investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirdi. 2019–2025 yillar davomida ushbu mexanizmlar orqali milliardlab dollar miqdorida investitsiyalar jalb qilingan.

Bundan tashqari, ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun joriy etilgan soliq imtiyozlari kompaniyalarga R&D xarajatlarining 35–66 foizigacha qismini soliq bazasidan chiqarib tashlash imkonini beradi. 2022-yilda qabul qilingan "Innovation Policy 2030" strategiyasi esa ustuvor yo'nalishlar sifatida sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, sog'liqni saqlash texnologiyalari va agrotechni belgilab, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda xorijiy kapital ulushini oshirishni maqsad qilgan. Shuningdek, rivojlangan kapital bozorlari, jumladan xalqaro fond birjalarida faol ishtirok, samarali chiqish (exit) mexanizmlarini ta'minlamoqda.

1-jadval.

Isroil startup ekotizimining asosiy ko'rsatkichlari (2024-2025)⁷

Ko'rsatkich	Qiymat	Manba
VC investitsiya hajmi (2024)	12 mlrd AQSh dollari	SNC 2024
Jon boshiga VC (2024)	1 580 \$/kishi - global rekord	IVC/Dealroom 2024
Global startup reytingi	#3 (StartupBlink 2026)	StartupBlink 2026
Faol startaplar soni	21 900+	Tracxn 2025
Yakkashox kompaniyalar	42 (jami 94,2 mlrd \$)	Tracxn 2025
Faol VC fondlar soni	61+ LP fond	IVC 2024
Deep-Tech investitsiyalar (2019–25)	28,6 mlrd \$	IIA 2025
YIM ulushi (yuqori tex.)	~17%	IIA 2025
Nasdaq'da ro'yxatdan o'tgan	90+ kompaniya	Nasdaq 2025
StartupBlink reytingi (2026)	#3	StartupBlink 2026
8200 bo'limi unicorn ulushi	~15%	IVC 2024

⁷ StartupBlink (2026); Tracxn (2025); Startup Nation Central (2024); IVC Research Center & Dealroom (2024); Israel Innovation Authority (2025) Triple Helix: universitetlar va innovatsion infratuzilma
<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>



Isroil innovatsion ekotizimida universitetlar markaziy o'rin tutadi va Triple Helix modelining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Yetakchi ilmiy muassasalar nafaqat fundamental tadqiqotlar olib boradi, balki innovatsion mahsulotlar yaratish va ularni tijoratlashtirish jarayonida ham faol ishtirok etadi.

Universitetlar qoshida faoliyat yurituvchi texnologiya transferi ofislari (TTO) ilmiy ishlanmalarni patentlash, litsenziyalash va spin-off kompaniyalar tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Ayrim TTolar xalqaro miqyosda yuqori daromad keltiruvchi institutlarga aylangan bo'lib, bu ilm-fan va biznes integratsiyasining samaradorligini ko'rsatadi.

Kadrlar tayyorlash nuqtai nazaridan, universitetlar va harbiy tizim o'rtasidagi hamkorlik yuqori malakali muhandis va IT mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Natijada, mamlakatda texnologik sohada band bo'lgan mutaxassislar ulushi yuqori darajaga yetgan. Shu bilan birga, xalqaro texnologik kompaniyalarning ilmiy-tadqiqot markazlari mavjudligi mahalliy inson kapitaliga bo'lgan yuqori talabni tasdiqlaydi va ekotizimning global integratsiyasini kuchaytiradi.

O'zbekiston startap ekotizimi: holat va rivojlanish dinamikasi. Tarixiy rivojlanish bosqichlari (2019–2025)

O'zbekiston startap ekotizimining institutsional shakllanishi 2019-yilda IT Park Uzbekistan tashkil etilishi bilan tizimli bosqichga o'tdi. Mazkur davrni uch asosiy rivojlanish fazasiga ajratish mumkin: boshlang'ich shakllanish bosqichi (2019–2020), o'tish va tashqi kapitalni jalb qilish bosqichi (2020–2023) hamda tezlashgan o'sish bosqichi (2024–2025).

2019–2020-yillarda ekotizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchi davlat tomonidan ajratilgan grantlar va subsidiyalar bo'lib, startaplar ko'proq ijtimoiy va texnologik tajriba sifatida qo'llab-quvvatlandi. 2018–2023-yillar davomida 300 ga yaqin startap loyihalar turli davlat dasturlari orqali moliyalashtirildi, bu esa boshlang'ich tadbirkorlik muhitining shakllanishiga xizmat qildi. Biroq ushbu bosqichda xususiy kapitalning ishtiroki cheklangan bo'lib, bozor mexanizmlari to'liq shakllanmagan edi.

2020-yil ekotizim rivojida burilish nuqtasi bo'ldi, chunki aynan shu davrda ilk professional vechur kapital investitsiyalari mamlakatga kirib keldi. Sturgeon Capital fondining faol ishtiroki orqali Billz, ZoodMall, Arzon Apteka va Zip24 kabi startaplarga sarmoya kiritilishi ekotizimni global investitsiya maydoniga integratsiyalashuvini boshlab berdi. 2022–2023-yillarda esa mahalliy vechur institutlar

— UzVC va UZCARD Ventures kabi fondlarning shakllanishi ichki kapital bozorining rivojlanishiga zamin yaratdi.

2024–2025-yillar davri ekotizimning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi. Xususan, Uzun kompaniyasining 52 million AQSh dollari miqdoridagi Series A investitsiya raundini muvaffaqiyatli yakunlab, 1,16 milliard AQSh dollari baholanishga erishgani mamlakat tarixida ilk bor "yunikorn" kompaniyaning shakllanishiga olib keldi. 2025-yilga kelib umumiy investitsiyalar hajmining 329 million AQSh dollariga yetishi O'zbekistonni Markaziy

Osiyodagi eng dinamik rivojlanayotgan startap ekotizimlaridan biriga aylantirdi.

Riskli kapital infratuzilmasi 2025-yilga kelib O'zbekistonda vechur kapital infratuzilmasi sezilarli darajada kengaydi va diversifikatsiyalandi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan vechur fondlar soni 16 taga yetib, ularning umumiy aktivlari hajmi taxminan 220 million AQSh dollaridan oshdi. Taqqoslash uchun, 2021-yilda atigi 4 ta fond mavjud bo'lgan bo'lsa, qisqa muddat ichida to'rt baravar o'sish kuzatildi, bu esa ekotizimda institutsional rivojlanish sur'atlarining yuqoriligini ko'rsatadi.

2024-yilda bir vaqtning o'zida bir nechta yangi fondlarning tashkil etilishi risk kapital bozorining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Jumladan, AloqaVentures 2, SQB Ventures, Youth Entrepreneurship Development Fund, Asaka Ventures hamda bir nechta tijorat banklari ishtirokida tashkil etilgan United Ventures fondi ushbu infratuzilmaning asosiy elementlariga aylandi. IT Park Ventures fondi ham 10 million AQSh dollari boshlang'ich kapital bilan tashkil etilib, qisqa muddat ichida yuzlab startap loyihalarni ko'rib chiqdi.

Investitsiya hajmi va strukturasida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, o'rtacha investitsiya miqdorining 160 ming AQSh dollaridan 430 ming AQSh dollarigacha oshishi startaplarning rivojlanish bosqichlari bo'yicha moliyalashtirish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi. Shuningdek, umumiy investitsiyalarning 52 foizining mahalliy vechur fondlar hissasiga to'g'ri kelishi ichki kapitalning rolini oshib borayotganini anglatadi. Biroq, Isroil bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, vechur kapital hajmi, investorlar soni va global integratsiya darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Davlat dasturlari va qonunchilik muhiti

O'zbekistonda startap ekotizimini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati bosqichma-bosqich institutsional tus olmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

"Raqamli startaplar" dasturi startaplar uchun xalqaro akselerator va inkubatsiya dasturlarida ishtirok etish xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish orqali ularning global bozorga chiqishini qo'llab-quvvatlaydi. IT Visa dasturi esa xorijiy startap asoschilari va investorlar uchun qulay migratsiya rejimini yaratib, inson kapitali oqimini rag'batlantiradi.

2023-yildan boshlab o'tkazilayotgan "Prezident Tech Award" tanlovi innovatsion loyihalarni aniqlash va rag'batlantirishda muhim instrumentga aylandi. 2024-yilda ushbu tanlovda 550 dan ortiq startap ishtirok etgani ekotizim faolligining oshib borayotganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, PF-357-sonli farmon asosida SAFE shartnomalari va konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar uchun maxsus "regulyator sandbox" rejimining joriy etilishi startaplarni moliyalashtirishning zamonaviy instrumentlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini berdi.

Umuman olganda, O'zbekistonda davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat startap



ekotizimining institutsional asoslarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, u bosqichma-bosqich xususiy sektor va xalqaro investorlar ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kelgusida ushbu siyosatning

samaradorligi innovatsiya infratuzilmasini chuqurlashtirish, kapital bozorlarini liberallashtirish va xalqaro integratsiyani kuchaytirish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Soha	Isroil (2024)	O'zbekiston (2025)
Kiberxavfsizlik / FinTech	28%	25%
Sun'iy intellekt / Deep-Tech	35%	9%
Biotech / Med-Tech	20%	13%
ERP/SaaS/B2B	12%	18%
Boshqa yo'nalishlar	5%	35%

4-rasm. Isroil va O'zbekiston — sohalar bo'yicha investitsiyalar taqqoslamasi

Qiyosiy tahlil: isroil va O'zbekiston

Isroil va O'zbekiston startup ekotizimlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida bir nechta fundamental xulosalar shakllanadi.

Avvalo, ushbu ekotizimlar o'rtasidagi miqdoriy tafovut nihoyatda sezilarli ekanligi aniqlanadi. Xususan, Isroil startup ekotizimi yiliga o'rtacha 12 milliard AQSh dollari miqdorida ventur kapital investitsiyalarini jalb

qilayotgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 329 million AQSh dollarini tashkil etadi. Mazkur tafovut investitsiyalar hajmi bo'yicha qariyb 35–40 baravar farq mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston startup ekotizimi o'sish sur'atlari nuqtai nazaridan yuqori dinamika namoyon etmoqda — 2025-yilda 132 foizlik o'sish qayd etilgani ushbu tizimning transformatsion bosqichda ekanligini anglatadi.

2-jadval.

Isroil va O'zbekiston startup ekotizimlarining qiyosiy tahlili⁸

O'lchov	Isroil	O'zbekiston	Farq / Izoh
VC investitsiya (2024)	12 mlrd \$	\$69,5 mln	37x farq
VC investitsiya (2025)	~14 mlrd \$	\$329 mln	43x farq
Yunikorlar soni	42 ta	2 (Uzum, TBC)	Katta tafovut
Faol VC fondlar	61+ LP fond	16 ta	4x kam
Ekotizim yoshi	30+ yil (Yozma-1993)	5–6 yil	Tarixiy farq
O'sish sur'ati (VC)	+31% (2024)	+132% (2025)	Tezroq o'smoqda
Univ.-sanoat aloqasi	Kuchli (TTO tizimi)	Rivojlanmoqda	O'rta farq
Davlat dasturlari	Yozma, IIA, Magnet	IT Park, PP-357	O'xshash model
Exit bozori (IPO/M&A)	Nasdaq — 90+ komp.	Deyarli yo'q	Katta tafovut
Global reyting	#3 (StartupBlink)	Top-100	Katta farq
Jon boshiga VC	\$1 580 (global rekord)	\$10	157x kam

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud tafovutlar nafaqat moliyaviy resurslar bilan, balki chuqur institutsional va strukturaviy omillar bilan ham belgilanadi. Birinchi va eng muhim omil — exit mexanizmlarining rivojlanmaganligidir. Isroilda Nasdaq fond birjasida ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar sonining 90 dan ortiq ekani investorlar uchun samarali kapital chiqish (exit) imkoniyatlarini yaratadi. O'zbekistonda esa IPO bozori va ikkilamchi kapital bozorlari hali rivojlanish

bosqichida bo'lib, bu ventur kapital investorlarining riskini oshiradi hamda yangi fondlar shakllanishini cheklaydi.

Ikkinchi muhim farq Triple Helix modeli doirasida universitetlar, sanoat va davlat o'rtasidagi hamkorlik darajasiga taalluqlidir. Isroilda Texnion, Veysman ilmiy instituti va Tel-Aviv universiteti qoshidagi texnologiya transferi ofislari (TTO) ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, patentlash va spin-off

⁸ Muallif tomonidan hisoblangan (Startup Genome 2025; IVC 2025; IT Park 2025 asosida)

<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>



kompaniyalar tashkil etishda markaziy rol o'ynaydi. O'zbekistonda esa ushbu mexanizmlar hali yetarli darajada institutsionallashtirilmagan bo'lib, ilm-fan va biznes o'rtasidagi uzviy bog'liqlik nisbatan sust rivojlangan.

Uchinchi muhim tafovut inson kapitali va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlarida namoyon bo'ladi. Isroilda harbiy-texnologik ta'lim tizimi, xususan 8200-bo'lim kabi strukturalar yuqori malakali muhandislar va texnologik tadbirkorlar tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur tizim tezkor qaror qabul qilish, murakkab muammolarni hal etish va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'zbekistonda bunday institutsional model mavjud emas, biroq ushbu bo'shliqni qisman to'ldirish uchun STEM ta'limi, amaliy innovatsiya laboratoriyalari va tadbirkorlik ko'nikmalarini integratsiyalovchi maxsus ta'lim markazlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston startap ekotizimi yuqori o'sish salohiyatiga ega bo'lsa-da, uning barqaror rivojlanishi uchun moliyaviy resurslardan tashqari institutsional infratuzilmani chuqurlashtirish, kapital bozorlari samaradorligini oshirish hamda innovatsion hamkorlik

mexanizmlarini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari Isroil startap ekotizimi boshqaruvining yuqori samaradorligi ko'p omilli va o'zaro integratsiyalashgan tizimga asoslanishini tasdiqlaydi. Xususan, Yozma modeliga asoslangan rivojlangan vechur kapital infratuzilmasi, harbiy-texnologik ta'lim tizimi (jumladan, 8200-bo'lim), Triple Helix doirasidagi institutsional hamkorlik, Magnet va IIA dasturlari orqali amalga oshiriladigan innovatsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, Nasdaq orqali IPO imkoniyatlari hamda "chutspa" tadbirkorlik madaniyati yagona, o'zaro bog'liq va yuqori samaradorlikka ega ekotizimni shakllantiradi. O'zbekiston startap ekotizimi esa nisbatan qisqa tarixga ega bo'lishiga qaramay, boshlang'ich rivojlanish bosqichini muvaffaqiyatli bosib o'tdi. So'nggi besh yil davomida investitsiyalar hajmining keskin oshgani (taxminan 200 martadan ortiq o'sish) hamda mamlakat tarixidagi ilk "yunikorn" kompaniyaning shakllanishi global miqyosda kam uchraydigan yuqori o'sish dinamikasini namoyon etadi. Bu holat ekotizimning transformatsion rivojlanish bosqichida ekanligini ko'rsatadi.

QISQA MUDDAT 2025–2027	O'RTA MUDDAT 2027– 2030	UZOQ MUDDAT 2030+	MAQSAD 2031–2035
- Yozma analogini joriy etish - VC uchun 5-yillik soliq imtiyoz - IT VISA kvotasini 10x oshirish "O'zbekiston Innovatsiya Fondi" (OIF) tashkil etish	- Univ.-sanoat TTO tizimi - OIF'ni \$500M gacha kengaytirish - IP huquq tizimini kuchaytirish - STEM + tadbirkorlik markazlari	- Xalqaro VC fondlarni jalb qilish - Toshkent birjasida tech IPO treki - Markaziy Osiyo regional hub - Xalqaro bozorga yo'naltirilish	- Mintaqaning yetakchi startap ekotizimi 10+ yunikorn \$2B+ yillik investitsiya

5-rasm. O'zbekiston uchun startap ekotizimini rivojlantirish yo'l xaritasi (Isroil tajribasi asosida)⁹

Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Isroil modelini to'liq ko'chirish na amaliy jihatdan mumkin, na strategik nuqtai nazardan maqsadga muvofiqdir. Har bir mamlakat o'zining iqtisodiy, demografik va institutsional xususiyatlaridan kelib chiqib, moslashuvchan va kontekstga mos modelni

shakllantirishi zarur. O'zbekiston uchun bunday yondashuvni amalga oshirishda mamlakatning geostrategik joylashuvi, yosh aholi ulushining yuqoriligi (30 yoshgacha bo'lganlar ulushi taxminan 60 foiz) hamda davlatning faol va proaktiv siyosati muhim ustunliklar sifatida namoyon bo'ladi.

3-jadval.

O'zbekiston startap ekotizimining SWOT-tahlili

KUCHLI JIHATLAR	ZAIF JIHATLAR
- Aholining yoshligi (60% – 30 yoshgacha); - Davlatning faol ishtiroki va siyosiy iroda; - IT Park Uzbekistan infratuzilmasi; - Birinchi yunikorning paydo bo'lishi (Uzum); 2025-yilda 132% ekotizim o'sishi; - Geostrategik joylashuv (Ipak yo'li ko'chasi).	- Kechki bosqich VC bozorining rivojlanmaganligi; - Universitet-sanoat struktural aloqasining yo'qligi; - IPO va M&A exit imkoniyatlari cheklanganligi; - Harbiy-texnik innovatsiya mexanizmining yo'qligi; - Tajribali mentor-investorlar kamligi.

⁹ Muallif tomonidan Isroil tajribasi asosida ishlab chiqilgan.



IMKONIYATLAR	TAHDIDLAR
• Isroil Yozma modeli analogini joriy etish; • Markaziy Osiyo bozori (75 mln kishi); • O'zbek diasporasi texnologlaridan foydalanish; • Xalqaro akseleratorlar (Plug&Play, Google); • Global AI va Deep-Tech to'liqini imkoniyatlari.	• Mintaqaviy raqobat (Qozog'iston, Gruziya); • Tajribali kadrlarning chet elga ketishi (brain drain); • Valyuta noqarorligi xavfi; • Global VC qiziqishining pasayishi xavfi; • Korporativ sektorning past faolligi.

4-jadval.

Isroil tajribasidan kelib chiqqan siyosiy tavsiyalar

Soha	Isroil modeli	O'zbekiston uchun tavsiya	Muddat
Huquqiy asos	Yozma Act (1993), IIA qonunchiligi	Univ. IP qonunini isloh qilish; texnologiya transfer idoralarini barpo qilish	Qisqa (2025–2027)
VC qo'shma moliyalashtirish	Yozma 1+3 ko'hamoliyalashtirish, Yozma 2.0 (2024)	OIF: 50–100M\$ kapital bilan fond-of-funds; 0.3:1 nisbat; xorijiy investor shart	Qisqa (2025–2027)
Univ.-sanoat	TTO tizimi (Texnion, Veysman)	Barcha yirik universitetlarda TTO bo'limi; spin-off uchun maxsus rejim	O'rta (2027–2030)
Texnologik inkubatorlar	OCS inkubatorlar tizimi (IIA)	IT Park doirasida 5–8 ixtisoslashgan inkubator (fintech, agritech, medtech)	O'rta (2027–2030)
Iqtidor jalb qilish	Ofek dasturi, xorijiy talent jalbi	IT Visa kvotasini 10x oshirish; diaspora jalb dasturi	Qisqa (2025–2027)
Exit mexanizmi	Nasdaq — 90+ komp., kuchli M&A	Toshkent birjasida tech-IPO treki; M&A soliq rag'bat	Uzoq (2030+)
STEM ta'lim	8200-bo'lim, Texnion STEM	Intensiv tech bootcamp dasturlari; STEM-tadbirkorlik integratsiya markazlari	O'rta (2027–2030)
Regional hub	Tel-Aviv Silicon Wadi	Toshkent + Samarqand hub strategiyasi; hududiy IT parklari	Uzoq (2030+)

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi uchta asosiy xulosa shakllantirildi:

Birinchi xulosa. O'zbekiston startap ekotizimi o'sish sur'atlari va davlatning faol ishtiroki nuqtai nazaridan global miqyosda raqobatbardosh tizimlardan biriga aylanib bormoqda. 2025-yilda investitsiyalar hajmining 132 foizga oshgani hamda mamlakatning global top-100 startap ekotizimlari qatoriga kirgani ushbu ijobiy dinamikani tasdiqlaydi. Biroq, Isroil bilan taqqoslaganda tafovut hanz sezilarli bo'lib, ayniqsa jon boshiga to'g'ri keladigan venchur kapital investitsiyalari bo'yicha katta farq saqlanib qolmoqda.

Ikkinchi xulosa. O'zbekiston uchun ustuvor strategik yo'nalishlardan biri — Yozma modeli asosida "O'zbekiston Innovatsiya Fondi"ni (OIF) tashkil etishdir. Tavsiya etilayotgan 50–100 million AQSh dollari miqdoridagi boshlang'ich kapital hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ko'hamoliyalashtirish mexanizmi (0.3:1 nisbatda) o'rta muddatli istiqbolda (2028-yilgacha) 500 million AQSh dollariga teng mahalliy venchur kapital bozorini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Uchinchi xulosa. O'zbekiston sharoitiga

moslashtirilgan "Texnologiya transferi to'g'risida" maxsus qonunchilikni qabul qilish yuqori samarali strategik choralar qatoriga kiradi. Ushbu mexanizm universitetlarda yaratilayotgan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, patentlash va startaplar orqali bozorga chiqarish jarayonlarini institutsional asosda rivojlantirish imkonini beradi. Isroil tajribasi shuni ko'rsatadiki, bunday qonunchilik va institutlar joriy etilgach, qisqa muddat ichida universitetlar negizida yuzlab innovatsion kompaniyalar tashkil etilishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun startap ekotizimini rivojlantirishda kompleks va tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bu jarayon nafaqat moliyaviy resurslarni kengaytirishni, balki institutsional infratuzilmani mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirish va global innovatsion tarmoqlarga integratsiyalashuvni chuqurlashtirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] Avnimelech G. VC policy: Yozma program 15-years perspective. ResearchGate Working Paper. 2009. URL: <https://www.researchgate.net/publication/228921726>



[2] Avnimelech G., Teubal M. Creating venture capital industries that co-evolve with high tech. *Research Policy*. 2006. Vol. 35, no. 10. Pp. 1477–1498.

[3] Carnegie Endowment for International Peace. *The Silicon Valley Model and Technological Trajectories in Context*. Washington D.C., 2024.

[4] Dealroom. *Israel startup ecosystem report*. 2024. URL: <https://dealroom.co/guides/israel>

[5] Etzkowitz H., Leydesdorff L. The dynamics of innovation: From national systems and mode 2 to a Triple Helix. *Research Policy*. 2000. Vol. 29, no. 2. Pp. 109–123.

[6] IVC Research Center & Dealroom. *IVC-LeumiTech annual report on Israeli tech funding 2024*.

[7] Israel Innovation Authority. *Status report on Israeli high-tech 2025*. URL: <https://innovationisrael.org.il>

[8] Isenberg D. How to start an entrepreneurial revolution. *Harvard Business Review*. 2010. Vol. 88, no. 6. Pp. 40–50.

[9] IT Park Uzbekistan. *Annual Ecosystem Report 2025*. Tashkent, 2025. URL: outsource.gov.uz

[10] Mavlonov A., Rashidova G. Formation of venture capital market in Uzbekistan: problems and prospects. *Economics and Innovative Technologies*. 2022. No. 3. Pp. 12–24.

[11] Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston" strategiyasi. Tashkent: O'zbekiston, 2021. 452 b.

[12] Moore J. F. Predators and prey: A new ecology of competition. *Harvard Business Review*. 1993. Vol. 71, no. 3. Pp. 75–86.

[13] OECD. *Benchmarking government support for venture capital: Israel*. 2025. URL: <https://www.oecd.org/en/publications/benchmarking-government-support-for-venture-capital>

[14] Saxenian A. *The new Argonauts: Regional advantage in a global economy*. Harvard University Press, 2006.

[15] Stam E. *Entrepreneurial ecosystems and regional policy*. *European Planning Studies*. 2015. Vol. 23, no. 9. Pp. 1759–1769.

[16] StartupBlink. *Global Startup Ecosystem Index 2026*. URL: <https://lp.startupblink.com/report/>

[17] Startup Genome. *Global Startup Ecosystem Report 2025*. URL: <https://startupgenome.com/report/gser2025/>

[18] Startup Nation Central. *Annual report 2024: Israeli startup ecosystem*. URL: <https://www.startupnationcentral.org/>

[19] Tracxn. *Israel startup ecosystem data*. 2025. URL: <https://tracxn.com/>

[20] VentureBeat. *Uzbekistan's emerging startup ecosystem: a rising global innovation platform*. December 2025. URL: venturebeat.com

[21] World Bank. *Digital economy diagnostic: Uzbekistan*. World Bank Group, 2024.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Abduraupov Rustam Ramzovich Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti, iqtisodiyot fanlari doktori, Tashkent Xalqaro Vestminster Universiteti, Menejment kafedrası professori / Абдураупов Рустам Рамзович — Университет цифровой экономики и агротехнологий, доктор экономических наук; Вестминстерский международный университет в Ташкенте, профессор кафедры менеджмента / Abduraupov Rustam Ramzovich – University of Digital Economy and Agrotechnologies, Doctor of Economic Sciences; Westminster International University in Tashkent, Professor at the Department of Management.

E-mail: ceo@udea.uz

2. Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li Tashkent Xalqaro Vestminster Universiteti, Doktorantura dasturi talabasi / Содиков Эльмурод, Вестминстерский международный университет в г. Ташкенте, докторант / Sodiqov Elmurod, Westminster International University in Tashkent, Doctoral program student

E-mail: elm.sodiqov@wiut.uz



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz